



SHARQ DONISHMANDLARI BISOTI

Gulchexra Bozorova,

Gulchehra Ulug'berdiyeva

NDKTU akademik litseyi o'qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu malada farzandlar tarbiyasida, ularning barkamol avlod, yetuk shaxs bo'lib yetishishida sharq mutafakkirlarining fikrlari va ahamiyati, farzandlar tarbiyasida ota-onaning o'rni, bolalarimiz kelajagi porloq, hayoti mazmunli o'zlari esa tarbiyali o'qimishli, mas'uliyatli, vijdonli bo'lishida buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan betakror tarjibalari, ahamiyatli fikrlarining o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: munajjimlar, muhaddislar, o'tmish, buyuk siymolar, tarix, nodir va noyob qo'lyozmalar, "Qubbbatul ilm val adab", "Tuzuklar".

Kirish.

Bizning xalqimiz o'zining uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lishi bilan birga avlodlarimizda odamiylik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarning shakllanishida o'ziga xos tajribalarini to'plab kelgan.

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida – "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi",-deb ta'kidlaydi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. Haqiqatdan, farzandlarimizning barkamol shaxs bo'lib yetishishida ular o'z fikriga ega, biror kasb egasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Farzanlarimizning komil inson bo'lib tarbiya olishida bizga ulug' mutafakkirlarimizning beqiyos fikrlari katta ahamiyatga egadir.



Sharq donishmandligining boy tajribalarini o‘zlashtirgan va uni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan Sohibqiron Amir Temurning jamiyat, davlat haqidagi fikrlariga nazar tashlasak, xalqning osoyishtalikda, baxtli yashashida va elini odilona boshqarishida eng asosiy ta’sir etuvchi omillarning biri ma’rifat, ilm-fan sohalarini rivojlantirish deb hisoblanganini ko‘ramiz. Sohibqironning fikricha, davlatni va undagi ijtimoiy hayotni boshqarishda, uni to‘g‘ri yo‘nalishga solishda barcha narsalardan bilim, aql-zakovatustun bo‘lishi lozim. Shu bois mutafakkir davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash va maslahat bilan hal etilishi zarur ekanligini ta’kidlagan edi.

Amir Temur kelajak avlodlarga qoldirgan “Tuzuklar”ida odamning shaxsiy hayotida, davlat ishlarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan tafakkur, aql bilan ish yuritish kabi xislatlariga doimo diqqat bilan qaragan. Sohibqiron davlat hayotida ilm-fan bajaradigan xizmatlarning ulug‘ligini teran tushungan edi. “Men azaldan ilm shaydosiman”, -deb qalbidagi fikrni aytishi uning jamiyatni rivojlantirish borasidagi to‘g‘ri yo‘nalishni tanlaganini ko‘rsatadi. Amir Temur ilm-fanning insonni, jamiyatni rivojlantirishdagi xizmatiga katta baho berib, yoshlarga ilm sirlarini bilishda muhim vazifalar yuklaydi. Ilmning odamni to‘g‘ri yo‘lga boshlashini, insonni yetuk aqlga va fazilatga ega shaxs sifatida shakllantirishini, ayniqsa, nazarda tutgan va yoshlarning komil inson bo‘lishiga ta’sir etadigan omillarning biri-uning bilim olishi deb tushungan Amir Temur Movaraunnahr poytaxti Samarqandda ilm va madaniyatning gullab-yashnashi uchun shaharga turli mamlakatlardan olimlar, hunarmadlar, quruvchi muhandislarni yiqqan. Shaharda fanlar akademiyasini ochib, davlatni har tomonlama rivojlantirish uchun katta ishlar qilgan. Tug‘ilgan yeri Kesh(Shahrisabz) shahrida ilmga, odob-axloqning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratib, uni O‘rta Osiyoning ma’naviy markaziga aylantirdi. Shu bois Kesh shahri “Qubbbatul ilm val adab” nomiga sazovor bo‘ldi.

Ayniqsa Temur davlat miqyosida va shaxsan o‘zi ochgan bu masjid-madrasalarda bilim berish mazmunining sifatli bo‘lishiga ham katta ahamiyat



bergan. Ta'lim muasasalarida bilim olayotgan talabalarga "Qur'on"ning mazmunini, shu bilan birga, ta'lim oluvchi yoshlarga davlatning qonun-qoidalarini, shariatni o'rgatib, undan amalda foydalan bilishni, odob-axloq masalasida esa Muhammad ibn Abdulloh yaratgan hadislarni o'rganish va uni rahbarlikka olish zarurligini, shu uchta omil yoshlarning komil inson bo'lib yetishishini ta'minlaydigan ilm turlari deb hisoblagan.

Respublikamizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish ta'limni insonparvarlashtirish, bola shaxsini to'laqonli tushunish, uni hurmatlash, uning qiziqishi va qobiliyatini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish bilan birga insoniy sifatlarini shakllantirishni talab etadi. Jamiyatda inson omili har doim hal qiluvchi orin egallagani tufayli buyuk olim va mutafakkirlar ijodida, pand-nasihatlarida insonni tarbiyalash, komil inson bo'lish g'oyasi asosiy g'oya sifatida ifoda etilgan, axloq-odob me'yori hisoblangan.

O'rta Osiyoning buyuk allomalari va mutafakkirlaridan biri Az-Zamashariy har bir insonning insonparvar, odamiylik fazilatiga ega bo'lishi, xushfe'l, samimiy, razil odamlarning insonga, jamiyatga foydasiz ekanligini ta'kidlab, insonlarni halol, rostgo'y, haqiqatgo'y va adolatli bo'lishga undaydi: "Quyosh nuri bekilmaydi, haqiqat shami so'nmaydi".

Xulosa.

Sharq donishmandlarining fikrlari nafaqat tarixiy yodgorlik, balki zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan, yosh avlodni ma'naviy barkamol, keng dunyoqarashli qilib tarbiyalashda bebaho manba hisoblanadi. Ularning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, aksincha, jamiyat taraqqiyoti, milliy g'urur, ijtimoiy ong va ma'naviy yuksalishning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bois, "Sharq donishmandlari bisoti"ni chuqur o'rganish, uni ta'lim tizimiga tatbiq etish, yoshlarni bu meros bilan tanishtirish kelajak avlodning dunyoqarashini



kengaytirish, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barkamollikka erishish yo'lida muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amir Temur saltanati/B.Ermatov; Maxsus muharrir: X.Sulton;
“O‘zbekiston” 2016. 6-bet
2. Temur Tuzuklari. - Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996-yil. 344 b.
3. N.P.Jumaboyev —Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlaril . Науки об образовании. 2021.
- 4.Rajabova, D. (2025). SPECIFIC FEATURES AND FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE INNOVATIVE ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. Journal of Applied Science and Social Science, 1(2), 474-479.
- 5.Rajabova, D. (2025). SYSTEMIC PROBLEMS OF THE CURRENT STATE OF THE INNOVATION ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(3), 638-643.
- 6.Rajabova, D. (2025). WAYS TO IMPROVE INNOVATION ACTIVITIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN. International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 604-610.
- 7.Rajabova, D., & Usmonova, D. (2024). BIG DATA VA IQTISODIY TADQIQOTLARDA TAHLILIY IMKONIYATLAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(15), 16-23.